

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA IKKINCHI TILGA O'RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI

Yakubova Dilorom Rafilovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumani
23-son DMTT direktori*

Annatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ikkinchi tilga o'rgatishda multimedia vositalarining o'rni va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirish usullari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлена роль мультимедийных средств при обучении второму языку в дошкольных образовательных организациях и пути повышения эффективности обучения с их помощью.

Abstract. This article presents the role of multimedia tools in teaching a second language in preschool educational organizations and ways to increase the effectiveness of education through them.

Kalit so'zlar: multimedia, tovush, axborot texnologiyalar, ikkinchi til, pedagoglar, videofilmlar, audio axborotlar, bolalar.

Ключевые слова: мультимедиа, звук, информационные технологии, второй язык, педагоги, видеофильмы, аудиоинформация, дети.

Key words: multimedia, sound, information technologies, second language, pedagogues, video films, audio information, children.

Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'qitishda biz Amerika Qo'shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya'ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o'zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo'llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o'rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun xizmat qiladi.



Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

❖ axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

❖ muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zlash shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

❖ "inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi. O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma bir olishriga ruhsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a banana(an apple, an orange)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p bal to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan

bolalar yanada chet tilga boʻlgan qiziqishlari oʻsib boradi. Kompyuterlarning 70-yillarda taʼlim soxasida keng qoʻllash yoʻlida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bogʻliq edi. Amaliyot shuni koʻrsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida bolalarni oʻqitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yoʻtish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin boʻlib, olingan bilimlar esa xotirada oʻzoq muddat saqlanib qoladi. Agar pedagoglarga berilayotgan materiallarni koʻrish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qoʻshimcha sifatida oʻquv materiallari audio, video va grafika koʻrinishda mujassamlashgan holda



berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini oʻrganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik. Multimedia vositalari asosida bolalarga taʼlim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yoʻlga qoʻyish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi

90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning oʻzi nima degan savol tugʻiladi? Koʻpgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia — bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obʼyektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida oʻquv materiallarini bolalarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi koʻrinishidir. Hozirgi kunda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida oliy maʼlumotli til boʻyicha maxsus pedagog kadrlar samarali faoliyat koʻrsatib kelmoqdalar. Til oʻqituvchilaridan MTT tarbiyalanuvchilari bilan ikkinchi tilni oʻrgatish jarayonida AKT dan foydalanish taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada ishlarni tashkil qilish pedagogdan yuqori malakani talab etadi. Tarbiyachilarning taʼlim jarayonida multimediyadan foydalanish bolalarga:

- fanga qiziqish uygʻotish, oʻz bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;
- ensiklopedik koʻrinishdagi axborotlarni tezkor olish;
- mavzuni oʻrganishda oʻzi uchun qulay boʻlgan tezlik va oʻzlashtirish darajasini tanlash;
- zamonaviy axborot — kommunikatsion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga boʻlgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

Multimedia — bu obyekt va jarayonlarni anʼnaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir. Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan boʻyicha asosiy bilimlarni oʻzlashtirish;

- o‘zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta’minlash;
- o‘z — o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- bolalarni - o‘zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta’minlash;
- o‘z — o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- pedagoglar o‘quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o‘quv – metodik yordam ko‘rsatish.

Tarbiyachilar multimedia texnologiyalari asosida o‘qitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg‘ulotlarning har bir mavzusi bo‘yicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy materiallarning electron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoprojektorlar orqali bolalarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko‘rgazmali balki ovozli, animatsiyali bo‘lishi bolalar tomonidan mavzuni mukammal o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bugungi kunda bolalar rivojiga kompyuter texnologiyalari ta’sirining ko‘zga tashlanib turgan ayrim jihatlarini ko‘rib chiqaylik. Oilalarda mediatexnologiyalardan qanchalik ko‘p foydalanilib borilishi bilan bolalarga bilim beruvchi, savodxonlikni o‘rgatishga yordam beruvchi dasturlar soni ham ko‘payib bormoqda. Bundan tashqari, Internet tarmog‘iga ulangan televideniye va kompyuter qurilmalari bolalar uchun atrof-muhitni va hayotiy vaziyatlar bilan tanishib borishda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ma’lumki, kompyuter qurilmasining o‘ziyoq bolani o‘ziga qiziqtirib jalb etadi, bolani tezroq bilishga undaydi. Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan har bir mashg‘ulot emotsional ko‘tarinkilikka, muvaffaqiyatga erishishga, topshiriqlarni bajarish uchun intilishga majbur etadi.

Xulosa shuki: Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 80-90 % bolalar AKTdan foydalanish undan o‘yin orqali bilim olish va o‘ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o‘yinlar, mashg‘ulotlar, rangli tas’virdagi chizmalarni ko‘rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan.

ADABIYOTLAR:

1. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoev S. Web-texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Faylasuflar jamiyati», 2013.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

3. Bent B.Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education.UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013.ISBN 978-5-7777-0556-3.

4. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017 y.

5. Fozilov Sh.X., Jumanazarov S.S.Axborotli olam. Ilmiy-ommabop risola. Fan va texnologiya» nashriyoti. 2007 yil.